MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KASALLANISH KO‘RSATKICHLARINING QIYOSIY BAHOLANISHI

Davlatjonova Nodira Mahmudjon qizi
Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O‘zbekiston

Dolzarbligi. Maktabgacha yosh davri bolaning jadal o‘sishi, a’zo va tizimlarning funksional shakllanishi hamda tashqi muhit omillariga moslashishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda ovqatlanish tartibi va ratsion tarkibidagi buzilishlar organizmning himoya imkoniyatlarini pasaytirib, respirator, ovqat hazm qilish tizimi va alimentar bog‘liq kasalliklarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar kasallanish ko‘rsatkichlarini ovqatlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda qiyosiy baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasallanishning tuzilishi va chastotasini qiyosiy baholash hamda kasallanish ko‘rsatkichlarining ovqatlanish tartibi va antropometrik ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotga 180 nafar 3–7 yoshli bola jalb qilindi. Bolalarning o‘rtacha yoshi 4,8±1,1 yilni tashkil etdi. Ovqatlanish xususiyatlariga ko‘ra bolalar ratsional ovqatlanuvchi asosiy guruhga (96 nafar) va ovqatlanishida buzilishlar aniqlangan taqqoslash guruhiga (84 nafar) ajratildi. Kasallanish ko‘rsatkichlari tibbiy hujjatlar, ota-onalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma hamda profilaktik ko‘rik natijalari asosida baholandi. Bolalarning tana vazni, bo‘yi va tana vazni indeksi aniqlanib, yosh va jinsga mos antropometrik ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi. Statistik tahlilda o‘rtacha qiymat (M), standart og‘ish (SD), Student mezoni, χ^2 mezoni va Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanildi. Natijalar $p<0,05$ bo‘lganda statistik jihatdan ishonchli deb baholandi.

Tadqiqot natijalari. Bolalarning ovqatlanish tartibi o‘rganilganda, ularning 67,8%ida kechki ovqatlanish ratsional ovqatlanish tamoyillariga mos kelmasligi aniqlandi. Bunday bolalarda kechki ovqat tarkibi ko‘pincha katta yoshdagi oila a’zolari ratsioniga o‘xshash bo‘lib, ovqatlanish vaqti hamda asosiy oziq moddalar nisbati fiziologik me’yorlarga javob bermadi.Kuzatuv davrida bir bolaga to‘g‘ri kelgan kasallanish holatlarining o‘rtacha soni ovqatlanishida buzilishlar mavjud guruhda 5,4±1,2 marotaba, ratsional ovqatlanuvchi bolalarda esa 2,6±0,7 marotabani tashkil etdi ($p<0,001$).

O‘tkir respirator kasalliklar birinchi guruhda 4,1±0,9, taqqoslash guruhida 2,0±0,5 marotaba qayd etildi ($p<0,01$). Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari mos ravishda 38,2% va 11,5% bolalarda aniqlandi ($\chi^2=15,4$; $p<0,001$).Ovqatlanishida buzilishlar bo‘lgan bolalarda kasallik tufayli o‘tkazib yuborilgan kunlarning o‘rtacha soni 12,4±2,8 kunni, ratsional ovqatlanuvchi bolalarda esa 5,1±1,4 kunni tashkil etdi ($p<0,001$). Vitamin va mineral moddalarga boy mahsulotlarni kam iste’mol qilgan bolalarda yil davomida qayta kasallanish chastotasi 41,5%ga yuqori bo‘ldi.Korrelyatsion tahlil ovqatlanish tartibining buzilishi bilan yil davomida qayd etilgan kasalliklar soni o‘rtasida to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi ($r_s=0,56$; $p<0,001$). Kechki ovqatning yuqori kaloriyaliligi tana vazni indeksi bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega bo‘ldi ($r_s=0,62$; $p<0,01$). Sabzavot va mevalarni iste’mol qilish chastotasi bilan o‘tkir respirator kasalliklar soni o‘rtasida teskari bog‘liqlik aniqlandi ($r_s=-0,49$; $p<0,01$). Shuningdek, ovqatlanishning muntazamligi antropometrik rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘liqlikni namoyon etdi ($r_s=0,45$; $p<0,05$).

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ovqatlanish tartibining buzilishi kasallanish chastotasining oshishi, o‘tkir respirator va ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining ko‘p uchrashi hamda antropometrik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bolalarning 67,8%ida kechki ovqatlanishning ratsional tashkil etilmagani maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilalarda ovqatlanishni muntazam monitoring qilish zarurligini ko‘rsatadi. Kasallanish va ovqatlanish omillari o‘rtasidagi aniqlangan korrelyatsion bog‘liqliklar alimentar buzilishlarni erta aniqlash indikatorlarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.